Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# AHOLIGA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Uskanov Eldor**

Toshkent moliya instituti – mustaqil tadqiqodchi

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklari tomonidan aholiga bank xizmatlarini ko'rsatishning ahamiyati, sohada mavjud muammolar yechimi va banklar tomonidan aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bank, kredit, xizmat, pensionerlar, overdraft kredit, kafil, garov, kredit foizi, kredit riski, kredit monitoringi.

**Abstract:** The article discusses the importance of lending to the population by commercial banks, the existing problems and ways to improve the provision of banking services to the population.

**Key words:** bank, credit, services, pensioners, overdraft credit, collateral, guarantee, interest rate, credit risk, credit monitoring.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы значения кредитования населения коммерческими банками, имеющиеся проблемы и пути совершенствования оказания банковских услуг населению.

**Ключевые слова:** банк, кредит, услуги, пенсионеры, овердрафт кредит, залог, гарантия, процентная ставка, кредитный риск, кредитный мониторинг.

## KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida bank xizmatlarining turlarini ko'paytirish va ularni rivojlantirish, ayniqsa, tijorat banklarining aholiga ko'rsatadigan xizmatlari tizimini takomillashtirish, ularning soni va sifatini aholi talablari, iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar talablari hamda qo'yilayotgan vazifalardan kelib chiqib rivojlantirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Respublikamizda tijorat banklari faoliyatining uzluksiz takomillashib borishi bozor munosabatlarining muhim subyektlari bo'lgan, nafaqat yuridik shaxslar, balki aholiga xizmatlar ko'rsatish tizimini ham takomillashtirishni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Bu o'z navbatida tijorat banklari faoliyatini yangi muhit, aholi talablariga moslashtirish, uni uzluksiz nazorat qilishni va samarali boshqarish uchun muhim ma'lumotlar bazasi yaratilishining uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...Banklarning bosh vazifasi – bundan keyin o'z ish uslublarini tubdan o'zgartirib, fuqarolarimiz va tadbirkorlarning haqiqiy ishonchini qozonishga va ularga haqiqiy ko'makdosh bo'lishga erishishdan iborat, ...lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, banklar endi xalqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo'ladi"<sup>1</sup>.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish va ular uchun bank xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan F. Modolyani, D. Kokslar<sup>2</sup> tomonidan tadqiq qilinib ularning fikricha, banklarning aholiga xizmat ko'rsatish tizimi ko'proq "aholiga uyida xizmat ko'rsatish" yo'nalishida rivojlanishi maqsadga muvofiqdir. D. Polfreman, P. Rouz hamda J. Sinkilar<sup>3</sup> o'z ilmiy tadqiqod ishlarida ssuda kapitali

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". –T.: "O'zbekiston", 2016. –56 b.
- 2 Cox D. Success in elements of banking.-London: John Murray,1979.-271p.; Modigliani F., Fabozzi F. J., Ferri M. G. Foundations of financial markets and institutions.- New Jersey 61, 1997.-497p.;
- 3 Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford. –2nd ed. – London: Pitman, 1988.-660 p.; Поуз П. С. Банковский менеджмент. Пер.с англ.-Москва: Дело, 1997.-743 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер.с англ.- Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. –1018 с.





bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqalgani, bu jarayonlar o'z navbatida banklarning birlashish va singib ketishi holatlari ko'payishiga, ularning jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan xizmatlarining risklilik darajasi yuqori bo'lishiga olib kelganligini ta'kidlashgan. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar, ayniqsa, aholiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish va ularning samaradorligi masalalari Van Xorn D. K., Woodworth W., Woller G. lar tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>. Ushbu olimlarning aksariyati tijorat banklarida masofaviy xizmatlarning yangi turlarini joriy etish, unda aholi uchun qulayliklar yaratish va aholining omonot va to'lov kartalarida bo'lgan pullarining xavfsizligini ta'minlash va banklarning bu yo'nalishdagi operatsiyalarining samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishgan. Tijorat banklarining aholiga xizmat ko'rsatishi borasidagi operatsiyalari, bank xizmatlari va bank mahsulotlari turlarini ko'paytirish oid masalalar, banklarning masofaviy xizmatlarini rivojlantirish masalalari, ularning nazariy va amaliy jihatlari rus olimlaridan O. I. Lavrushin, G. G. Korobovalar<sup>5</sup> tomonidan ularning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilganini ko'rishimiz mumkin.

Mahalliy olimlarimizdan Sh. Z. Abdullayeva, Z. T. Mamadiyarov, X. A. Xudoyarova, Z. Z. Xudoyberganova, O. Aliqoriyevlar<sup>6</sup> ham o'z ilmiy tadqiqodlarida tijorat banklarining xizmatlari va uning asosiy qismlaridan bo'lgan banklarning aholiga ko'rsatadigan xizmat turlari, ularning mahalliy banklarimiz tomonidan qo'llanilishi hamda kelajakda bunday xizmat turlari, bank mahsulotlarini yanada taraqqiy ettirish masalalariga e'tibor qaratishgan va mamlakatimizda bank xizmatlarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqodlarni amalga oshirishgan. Tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatishda ularning zamonaviy turlarini ko'paytirish sohasiga prof. Sh. Z. Abdullayeva o'z e'tiborini qaratgan bo'lsa<sup>7</sup>, Z. T. Mamadiyarov va Z. Z. Xudoyberganovalar bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularning turli tumanligini ko'paytirish orqali aholining bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirish, bank xizmatlarining tezkorligini ta'minlash lozimligini ta'kidlashgan<sup>8</sup>. Tijorat banklari chakana xizmatlar bo'yicha tadqiqod olib borgan X. A. Xudoyarova esa tijorat banklarining "online" va chakana xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratgan<sup>9</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada aholiga bank xizmatlarini ko'rsatishga oid ilmiy qarashlar va tijorat banklari amaliyoti materiallari analiz-sintez usulidan foydalangan holda o'rganildi va xulosalar shakllantirildi, qiyosiy tahlil, guruhlash, empirik va kuzatish metodlaridan foydalangan holda aholiga bank xizmatlarini amaliyotdagi mavjud muammolarning sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha fikr va xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda jahonda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash, bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalari muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, bugungi kunda bank – moliya tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi ishonchini yanada mustahkamlash, banklar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurga aylanmoqda. Tijorat banklari omonatchilarni jalb etish uchun tashkilot korxona va aholi mablag'larini ancha uzoq muddatga jalb etishga qaratilgan foiz siyosatidan foydalaniladi. Bu sharoitda mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davom etayotgan global siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'ati 2023-2024-yillarda 5,6-5,8 foizni tashkil etib, 2025–2026-yillarda mos ravishda 6,2–6,4 foizgacha yetishi prognoz qilingan. Xalqaro valyuta jamg'arma-

4 Van Хорн Д. К. Основы управления финансами. Пер. с англ.; Гл. ред. серии, Nigeria: Selected Issues // IMF Country Report No. 08/65, February 2008, Woodworth W., Woller G. (1999) What is microfinance. Journal of microfinance, 15, pp. 6.

5 Лаврушин О. И. Банковское дело: -М.: Финансы и статистика, 2014.—241е.; Банковское дело: учебник/под. ред. д.э.н. проф. Коробовой Г. Г. -М.: Экономист, 2004.- 751е.

6 Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. —T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 534 b., Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.—T.: 2019. 13 b., Xudoyarova X. A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish.. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.—T.: 2020. 9 b.

7 Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 533 b

8 Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.—T.: 2019. 12 b.

9 Xudoyarova X. A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish.. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.—T.: 2020. 9 b.



sining prognozlariga ko'ra, dunyo bo'ylab markaziy banklar tomonidan inflyatsiya oshishiga qarshi choralarning ko'rilishi natijasida global inflyatsiya darajasi 2022-yilgi o'rtacha 8,7 foizdan 2023-yilda 6,9 foizgacha va 2024-yilda 5,8 foizgacha tushishi, biroq pandemiyadan oldingi davrdan (2017 – 2019-yillardagi 3,5 foiz) yuqori darajada bo'lishi kutilmoqda. Global inflyatsiya darajasining tushishiga asosiy omil sifatida 3 jahon bozoridagi oziq-ovqat va boshqa turdagi asosiy tovarlarning narxlarida pasayish kuzatilayotgani bilan izohlangan. Yuqoridagilar natijasida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023-yilda 9,0 foiz atrofida tushishi kutilmoqda. Shu bois, prognozlarga ko'ra 2023-2024-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026-yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Buning uchun keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar qaramasdan O'zbekistonning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida inson kapitalini rivojlantirish choralari ko'rish ko'zda tutilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida joriy yildagi 4 foizlik iqtisodiy o'sish sur'ati saqlanib qolinayotgan bo'lsa-da, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari, jumladan, Rossiya iqtisodiyoti 2023-yilda 2,2 foizdan 2024-yilda 1,1 foizga, Xitoy 5,0 foizdan 4,2 foizga, Turkiya iqtisodiyoti 4,0 foizdan 3,0 foizga hamda Qozog'iston 4,6 foizdan 4,2 foizga sekinlashishi prognoz qilinmoqda<sup>10</sup>.

**1-jadval: Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining mintaqadagi ba'zi davlatlar uchun iqtisodiy o'sish prognozlari<sup>11</sup>, (foizda)**

	Xalqaro valyuta jamg'armasi		Jahon banki	
	2023	2024	2023	2024
Jaxon iqtisodiyoti	3,0	2,9	2,5	2,1
Rossiya	2,2	1,1	1,6	1,3
Xitoy	5,0	4,2	5,1	4,6
Turkiya	4,0	3,0	4,2	3,1
Qozog'iston	4,6	4,2	4,5	4,3
Qirg'iziston	3,4	4,3	3,4	4,0
Tojikiston	6,5	5,0	6,5	5,0
Ozarbayjon	2,5	2,5	1,5	2,4
Gruziya	6,2	4,8	5,9	4,8

2023-yilgi xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tayyorlangan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish prognozlari ko'ra 2023-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishi 5,5 foiz atrofida va 2024-yilga borib ushbu ko'rsatkich 5,5-5,6 foizlar atrofida bo'lishi kutilmoqda.

**2-jadval: O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati<sup>12</sup> (foizda)**

Xalqaro valyuta jamg'armasi (2023-yil oktyabr)	5,5	5,5	x	x
Jahon banki (2023-yil oktyabr)	5,5	5,6	5,8	x
Osiyo taraqqiyot banki (2023-yil aprel)	5,5	5,5	x	x
Milliy prognozlari	5,6-5,8	5,6-5,8	6,2	6,4

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirilayotgani hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2023-yilda ham barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga (5,6-5,8 foiz) erishish kutilmoqda. Bunda aholi daromadlari asosan, o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi miqdorining 18-20 foizga va iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shilgan qiymati-

<sup>10</sup> Budjetnoma. 2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 5 b.

<sup>11</sup> Budjetnoma.2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 6 b.


<sup>12</sup> Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining 2023-yil oktyabr oyidagi hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan. Budjetnoma.2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 8 b.



ning 5,6 foizga o'sishi hamda pul o'tkazmalari hajmi o'sishi bazaviy trend doirasida qolishi hisobiga erishiladi<sup>13</sup>.

2024–2026-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozlarini hamda iqtisodiy o'sishning asosiy yo'nalishlarining to'rtinchi yo'nalishi – xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'lib, u orqali 2024-yilda bozor xizmatlari o'sishini 14,9 foiz (574 trln so'm) darajasida ta'minlash prognoz qilinmoqda. Bunda, yuqori o'sish sur'atlari asosan ta'lim hamda aloqa va axborotlashtirish – 25,5 foiz, moliya – 22,3 foiz va transport – 10,4 foizga o'sish hisobiga ta'minlanishi prognoz qilinmoqda. Bunda, banklarning aholiga xizmat ko'rsatish tizimini raqamlashtirish, bu sohaga axborot texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Ta'lim kreditini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish, agar 2021–2023-yillar davomida jami 315 ming talaba, shundan 219 ming talaba xotin-qizlar uchun ta'lim kreditlari uchun 3,3 trln so'm resurs mablag'lari ajratilgan bo'lsa 2024-yilda qo'shimcha 180 ming nafar talabalar uchun ta'lim kreditlarini ajratish uchun mablag'lar rejalashtirilib, ushbu dastur bilan qamrab olinadigan talabalar soni qariyb 500 mingga yetishi kutilmoqda. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda jami 2,2 trln so'm, shundan 1,8 trln so'mi ta'lim kreditlarini moliyalashtirish hamda 400 mlrd so'mi xotin-qizlarga ajratilgan kreditni foiz qismini qoplash maqsadida rejalashtirilgan.

Bank mijozlari bo'lish istagini bildirgan fuqarolar doimiy ravishda ko'payayotganligi respublika aholisining faravonligi o'sayotgani, umuman bank tizimiga bo'lgan ishonch mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Aholining bank xizmatlaridan foydalanishi bank ko'rsatadigan xizmatlar xilma-xilligi, mijozlarga munosabatini va, eng muhimi, bank tizimiga ishonchni ham baholaydi. Hozirgi vaqtda jismoniy shaxslarga omonat hisobvaraqlari ochish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar orasida banklararo jo'natmalar bo'yicha ham, xalqaro tizimlar orqali o'tkazilayotgan tezkor pul jo'natmalari, banklarning "Western Union", "MIGOM", "Aziya Ekspress" tizimlari orqali, jumladan, vakil banklarning "CONTACT", "Lider" va "Yunistrim", "Tezkor Pochta", "BLIZKO" va "MoneyGram" tizimlari orqali operatsiyalar bajarib tezkor jo'natmalarni amalga bo'yicha ham bajarilayotgan operatsiyalari ommaviylashtirib tezkor pul jo'natmalari bo'yicha operatsiyalar hajmi o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga qaraganda aholini banklarga murojaatlarning barchasi belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi va ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Murojaatlarning tarkibi va aholining tijorat banklari bilan munosabatlarini quyidagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin<sup>14</sup>.




Bank sohasiga oid murojaatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, murojaatlarning 36,2 foizini xorijiy valyutani sotib olish va milliy valyutani xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish, 34,8 foizi bank kreditlarini olish bilan bog'liq masalalarga oid bo'lib, ularning aksariyati garov ta'minoti yetishmovchiligi, ipoteka kreditining boshlang'ich badal summasini to'lash, ta'lim krediti hamda imtiyozli kredit olish to'g'risidagi murojaatlardir. Murojaatlarning

13 cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari

14 cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari



8,6 foizini bank xizmatlarining ommabopligini va bank xizmatlari turlarini taqdim etish qoidalarining shaffofligini oshirish borasidagi murojaatlar tashkil etadi.



#### Aholining bankga murojaatining o'zgarish dinamikasi<sup>15</sup>

Shuningdek, bank xizmatlarini rivojlantirish, hisob raqamidan naqd pul olish, terminallar bo'yicha xizmat ko'rsatish va plastik kartalardan foydalanish bilan bog'liq murojaatlar ham mavjud.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish uchun:

- aholiga bank xizmatlarini ko'rsatishda masofaviy xizmatlar ko'rsatish, zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalangan holda bankga tashrif buyurmasdan masofadan turib bank xizmatini ko'rsatish yoki undan foydalanish tizimini takomillashtirish lozim;
- jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish, ularning pul mablag'larini banklarga jalb qilish, ularni saqlash va ulardan foydalanish borasidagi munosabatlarni erkinlashtirish maqsadga muvofiq;
- aholiga bank xizmatlari ko'rsatish sohasida yuzaga keluvchi risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish;
- aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining "online" va "homebanring" xizmat turlarini yanada takomillashtirish;
- aholining pensioner qatlami uchun bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish, pensionerlar uchun overdraft kreditini, aholining faol qatlami uchun kredit kartalar joriy etish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". –T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Cox D. Success in elements of banking.–London: John Murray, 1979.
3. Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford.- 2nd ed. – London: Pitman, 1988.
4. Роуз П. С. Банковский менеджмент. Пер.с англ.–Москва: Дело, 1997.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. –Пер.с англ.–Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007.
6. Ван Хорн Д. К. Основы управления финансами. Пер. с англ.; Гл. ред. серии, Nigeria: Selected Issues // IMF Country Report No. 08/65,– February 2008, Woodworth W., Woller G. 1999.
7. Лаврушин О. И. Банковское дело: –М.: Финансы и статистика, 2014.
8. Коробовой Г. Г. Банковское дело: учебник. –М.: Экономист, 2004.
9. Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2019.
10. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019.
11. XudoyarovaX. A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2020.
12. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining 2023-yil oktyabr oyidagi hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan. Bud-jetnoma. 2024–2026-yy. –T.: 2023-yil.
13. cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari.

15 cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.